

Jurayev Baxrom,

Qarshi davlat universiteti "Psixologiya" kafedrası
professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

HUQUQIY BILIMLARNING O'SPIRINLIK DAVRIDAGI SHAXSNING FAOL IJTIMOIYLASHUVI JARAYONIDAGI AHAMIYATI

УДК: 159.922.6.+34

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_8_5](https://doi.org/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_8_5)

JURAYEV B. HUQUQIY BILIMLARNING O'SPIRINLIK DAVRIDAGI SHAXSNING FAOL IJTIMOIYLASHUVI JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Maqolada o'spirinlik davri – insonning faol ijtimoiylashuv jarayoniga huquqiy bilimlarning ahamiyatining ijtimoiy-psixologik asoslari o'rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: shaxs, o'spirin, fuqarolik jamiyati, konstitutsiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, qonun.

ЖУРАЕВ Б. ЗНАЧИМОСТЬ ПРАВОВЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ АКТИВНОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА

В статье исследуются социально-психологические основы значимости правовых знаний в процессе подростково-активной социализации личности. В ней рассмотрены теоретические и практические аспекты проблемы, научно-исследовательская работа, проводимая учеными в этом направлении. Исследование автора показывает, что изучение этой проблемы по-прежнему очень актуально и сегодня.

Ключевые слова и понятия: личность, подросток, гражданское общество, конституция, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, право.

JURAYEV B. THE IMPORTANCE OF LEGAL KNOWLEDGE IN THE PROCESS OF ACTIVE SOCIALIZATION OF ADOLESCENTS

The article explores the socio – psychological foundations of the importance of legal knowledge in the process of adolescence-active socialization of the individual. It examines the theoretical and practical aspects of the problem, the scientific research work carried out by scientists in this area. The author's research shows that the study of this problem is still very relevant today.

Key words and concepts: personality, teenager, civil society, constitution, sense of justice, legal culture, legal literacy, law.

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi yillarda mamlakatimizda davlatimiz rahbari tomonidan yurtimiz yoshlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iste'dodini namoyon qilish va qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu yo'nalishda ko'rilgan tizimli chora-tadbirlar xalqaro hamjamiyat, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlardagi yoshlar siyosatiga mas'ul davlat tashkilotlari rahbarlarining diqqati va o'rganishlari markazida bo'lib kelyapti hamda yuksak e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston istiqbolning ilk kunlaridanoq kelajagi buyuk huquqiy demokratik, erkin fuqarolik jamiyati, adolatli davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yib, qabul qilingan qonunlar, Farmon va qarorlar mohiyatiga ham aynan ana shu tamoyil singdirilayotganligi quvonarli holdir.

Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq. Mamlakatimizda barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini anglash, ushbu jarayonda ishtirok etish fuqarolarning huquqiy madaniyati yuqori bo'lishini taqozo etmoqda. Chunki mamlakatimiz har bir fuqarosining o'z huquq va burchlarini hamda mas'uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog'ini davrning o'zi talab qilmoqda. Shaxsning dunyoqarashi, tafakkuri mamlakat hayotiga, yangilanishlarga mos ravishda o'zgarib borishi huquqiy madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu kishilarning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarni ijro etishi, hayotga tatbiq eta olish ko'nikmasi, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik, qonunlarga itoatkorlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorligini anglatadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosati huquqiy va siyosiy sohalarida yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik his-sini uyg'otish kerakligini hayotning o'zi taqozo

qilmoqda. Bu borada ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, mamlakatimiz Konstitutsiyasining muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish bo'yicha o'ziga xos tizim yaratish maqsadga muvofiqdir. Ushbu vazifalarni bajarishda esa aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini rivojlantirish va yuksaltirish yo'llarini, fundamental asoslarini maxsus tadqiqot obyekti sifatida psixologik kategoriyalar vositasida tadqiq etish hozirgi kunda obyektiv zaruriyat hisoblanadi.

Globalashayotgan dunyoda shaxs shakllanishiga qo'yilayotgan talablar qatorida huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni shakllantirish hamda rivojlantirish dolzarbligi ortib bormoqda. Shu sababli ham jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida tahsil oluvchilarga ham talablar o'zgarib bormoqda. Hozirgi ta'lim oluvchilarda qo'yiladigan talablarning eng muhimlari ularda informatsion kompetentlik, menejerlik salohiyati, huquqiy madaniyat va huquqiy savodxonlikni oshirish talabini qo'yadi. "Savodxonlik" tushunchasini bir qancha ilmiy soha va fanlar doirasida tadqiqot obyekti sifatida qarab kelinadi. Savodxonlik turlarini o'rganishar ekan ushbu tushunchaning mavjudligini ta'minlovchi umumiy vositalar, komponentlar va sabablarini keltirib o'tishadi. Ko'plab mualliflarning ishlarida savodxonlikni anglash - aqliy, intellektual, irodaviy, ehtiyoj hamda motivatsion sohalariga bog'lashadi.

Mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning qisqacha tahlili.

O'spirinik davri – insonning faol ijtimoiylashuv jarayoni bilan izohlangani sababli ham ko'plab psixologlar huquqiy savodxonlikni rivojlantirish ijtimoiylashuv jarayonini oson hamda ortiqcha zo'riqishlarsiz o'tishini ta'kidlashadi.

Shuningdek, E.I.Atagimova¹, T.Y.Gersog², N.V.Ippolitova³ va YE.V.Turgina⁴ kabi mutaxassislar o'spirinlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida huquqiy savodxonlik individual xususiyat sifatida muhim ahamiyat kasb etishni qayd etganlar.

O'spirinlarda huquqiy savodxonlikni o'rganish bo'yicha L.M.Manuylova⁵, A.S.Maksimovlarning⁶ ilmiy tadqiqot izlanishi e'tiborga molik. Mualliflar ilk o'spirinlik davridagi o'quvchilarning (14-15 yosh) huquqiy savodxonlikni shakllantirishdagi muammolarni psixologik, pedagogik jihatdan tahlil qilishgan. Ularning ilmiy tadqiqot ishida tadqiqot obyekti sifatida umumiy o'rta maktabda tahsil oluvchi 7-8 sinf o'quvchilari olingan bo'lib, mualliflar o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni shakllanishida o'quvchilarning motivatsion, ehtiyojlar sohasini, shuningdek huquqiy savodxonlikni shakllantirishdagi muammolar tahlil qilingan.

O'spirinlarda huquqiy savodxonlikning shakllanishidga ta'sir qiluvchi yana bir omil oilaning ijtimoiylashtiruvchi potensialidir. A.A.Rean tadqiqotlariga ko'ra⁷, o'spiringa oilaning salbiy ta'siri uning o'zini namoyon qilishiga to'sqinlik qiladi. Ancha vaqtgacha voyaga yetmaganlar,

xususan o'spirinlarning ijtimoiy og'uvchi xulq-atvorining asosiy sababi sifatida oila noto'liqligi – ota yoki onaning yo'qligi bilan izohlanar edi. Lekin XX asrning 60-70-yillarida bu tendensiya yo'qolib bordi. Bunga turli davlatlarda o'spirinlar o'rtasidagi jinoyatchilik statistikasi dalolat beradi. Statistik ma'lumotlarga asoslan-sak to'liq va noto'liq oilalarda tarbiya topgan o'spirinlar o'rtasida jinoyatchilik darajasining sonida farqi deyarli kuzatilmagan. Hozirgi kunda o'spirinlarning jinoyatchilik sababi sifatida oilaning psixoiijtimoiy deformatsiyasi hisoblanadi. Oilaning ijtimoiy munosabatlarga kirishimli emasligi ushbu oilada tarbiyalanayotgan o'spirinda har qanday sohada savodxonlikning shakllanmasligi esa tabiiy holdir. Shu sababli ham o'spirinlardagi huquqiy savodxonlikni rivojlantirishda avvalo oiladagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish zarurati mavjudligini inobatga olish kerak.

Tadqiqotning maqsadi o'spirinlarda huquqiy bilim va savodxonlikning tarkibiy tuzilmasi, shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarni empirik tadqiq etish hamda huquqiy savodxonlikni oshirishning psixologik shart-sharoitlarni takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. O'spirinlarni hayotning keyingi bosqichida huquqiy muammolar yuzasidan mutaxassislar bilan munosabatga kirishishi uchun ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish ahamiyatlidir.

O'spirinlik yoshiga xos huquqiy o'quv materiallarida psixotexnologiya usullarini sindirib borish o'quv materiallarini o'zlashtirish imkoniyatini oshirishligi inobatga olib, huquq ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda bunday jihatlarni inobatga olish muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari. Biz ilmiy tadqiqot ishimizda o'spirinlarda huquqiy savodxonlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida Qarshi davlat universiteti va Samarqand davlat universiteti talabalarini respondent sifatida tanlab oldik. Jami respondentlar soni 309 nafarni tashkil etadi. Tadqiqot ishida o'spirinlarda huquqiy savodxonlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek L.S.Mozjakovanning "Huquqiy savodxonlikni

¹ Атагимова Э.И. Нравственно-правовое воспитание и просвещение в современной школе: проблемы и пути решения // Мониторинг правоприменения. - М.: Научный центр правовой информации при Минюсте РФ, 2016. № 3 (20). С. 70–76.

² Герцог Т.Ю. Правовая функциональная грамотность и правовая культура: вопросы определения, соотношения, структуры // Правовая политика и правовая жизнь. Саратов : Саратов. гос. юр. академия, 2011. № 2. С. 68–73.

³ Ипполитова Н.В., Тургина Е.В. Формирование правовой грамотности студентов как педагогический процесс // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Образование. Педагогические науки. Челябинск : Изд-во ЮрГУ, 2012. Вып. 16. № 14. С. 65–69.

⁴ Мануйлова Л.М., Максимов А.С. (2021) Формирование правовой грамотности подростков как педагогическая проблема // Наука о человеке: гуманитарные исследования. Том 15. № 3. С. 95–101.

⁵ Мануйлова Л.М., Максимов А.С. (2021) Формирование правовой грамотности подростков как педагогическая проблема // Наука о человеке: гуманитарные исследования. Том 15. № 3. С. 95–101.

⁶ Мануйлова Л.М., Максимов А.С. (2021) Формирование правовой грамотности подростков как педагогическая проблема // Наука о человеке: гуманитарные исследования. Том 15. № 3. С. 95–101.

⁷ Реан А.А. Семья, социальные установки и асоциальное поведение детей и подростков // Российский психологический журнал. 2015. Т. 12. № 1. С. 29–40.

1-jadval. O'tgan yillar davomida o'zingiz va yaqinlaringiz bilan bog'liq huquqlarning buzilishini yuz berganligi xususidagi munosabat ko'rsatkichlari

Baholash mezonlari	O'spirinlar munosabat miqdori:	
	nafar	foiz
Ha	210	67,96
Yo'q	99	32,04

kni o'rganish"¹, D.S.Beznosovning "Huquqqa munosabat"² kabi metodikalari va empirik ma'lumotlarning normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirishda Kolmogorov-Smirnov mezonidan foydalandik.

Tajriba-sinov ishlarida o'spirinlarning o'tgan yillar davomida o'zlarini va yaqinlari bilan bog'liq huquqlarning buzilishini boshdan kechirganligi xususida holat tadqiq etildi. Buning uchun o'spirinlar o'zi va yaqinlarining huquqlari buzilganligi bo'yicha munosabatlariga "ha" yoki "yo'q" deb javob berishlari so'raldi (1-jadval).

Ushbu savolning davomi sifatida o'spirinlar va ularning oila a'zolari bilan bog'liq huquqlarning buzilishiga doir munosabatlari bir qator yo'nalishda kuzatildi (2-jadval).

O'spirin va ularning yaqinlari bilan bog'liq huquqiy buzilishlar yuz bergan sohalar o'n oltita yo'nalishda kuzatildi. Navbatdagi empirik ko'rsatkichlarda huquqiy buzishlar yuz bergan huquqiy munosabat sohalariga doir o'spirinlarning mulohazalari aks etgan. Respondentlarning ayrimlari huquqiy munosabat sohalar bo'yicha huquqiy buzilishlarni bir necha yo'nalishda baholaganlar. Shu bois umumiy ko'rsatkichlarning foizli ulushi 100 foizdan farq qilishi tabiiy.

O'spirinlarning fikricha ular va yaqinlarining huquqlarini buzilishi bilan bog'liq holatlar yuzasidan o'ziga xos munosabatlar aks etdi. Bu yuzasidan empirik materiallar quyidagi mulohazani o'zida aks ettirdi. Tahlilda o'spirinlardagi huquqiy buzilish sohalariga;

Birinchi o'rindagi huquqiy buzilishlar "tibbiy xizmatlar" sohasi bo'yicha qayd qilingan (132 nafar (42,71%)). Bundan ko'rinadiki, tibbiy xiz-

matlar sohasidagi huquqiy buzilishlar aholi orasida ham ko'p uchrashi mumkin ekan.

Ikkinchi o'rinda esa transport xizmati bilan bog'liq huquqiy buzilishlar ko'proq uchragan (86 nafar (27,83%)). Ko'p hollarda transport xizmatlari mamlakat doirasida keng amalga oshirilayotgan bir sharoitda transport xizmati yuzasidan fuqarolarning huquqlari buzilishi qayd etilgan.

Uchinchi o'rinda turar joylarning kommunal xizmatlari bo'yicha huquqlar buzilishlari joy oldi (62 nafar (20,06%)). O'spirinlar ushbu huquqiy munosabat sohalar bo'yicha munosabatlarini yosh xususiyatlari va tajribalaridan kelib chiqib bayon etganlar. Bu esa o'spirinlarning munosabati nuqtai nazarida baholangan.

To'rtinchi o'rin ko'chmas mulklar operatsiyalari (60 nafar (19,41%)) va oltinchi o'rin mulkchilik huquqini himoyalari (52 nafar (16,82%)) bilan bog'liq huquqiy buzilishlarda kuzatildi. Mazkur doiradagi huquqiy buzilishlarning oldini olish maqsadida huquqshunoslar tomonidan tayyorlangan amaliy qo'llanmalar fuqarolar uchun zarur ko'rsatma hisoblanadi.

Beshinchi o'rin soliq masalalari bilan bog'liq huquqiy buzilishlardir (53 nafar (17,15%)). Fuqarolarning fuqarolik sifatida soliq to'lash huquqidan xabardor bo'lishlari muhimdir. Ba'zi hollarda fuqarolar tomonidan daromadlarni yashirish hisobida huquqiy buzilishlar ro'y bersa, ikkinchi jihati soliq soha xodimlari tomonidan fuqarolarning soliqqa tortishda xatoliklar hisobida yuz berishi mumkin. Ko'p hollarda fuqarolarning soliq to'lovchi sifatida haq-huquqlarini bilishlari yoki uni buzgan holdagi xatti-harakatlari oqibatiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganishlari lozim.

Agar qolgan o'rinlarning umumiy tafsiloti taqdim etilganda o'spirinlar tomonidan quyidagi munosabat tizimlari qayd qilindi:

- yettinchi o'rinni moliyaviy xizmatlar bilan bog'liq huquqiy munosabat sohalar egalladi (50 nafar (16,18%)),
- sakkizinchi o'rin "ta'lim xizmatlari" (45 nafar (14,56%));

¹ Фарахутдинов Ш.Ф. Институциональные основы формирования экологической грамотности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата медицинских наук.-Тюмень,-2006.-28 с.

² Якимов П.А. Формирование поликультурной грамотности старшеклассника в образовательном процессе: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.- Оренбург., 2007.- 23 с.

2-jadval. O'spirinlar huquqlarining buzilishi holatlari ko'rsatkichlari

№	Huquqiy munosabat sohalari	O'spirinlar munosabat miqdori:		O'rin
		nafar	foiz	
1	Uy-joy kommunal xo'jaligi (UKX)	62	20,06	3
2	Tibbiy xizmatlar	132	42,71	1
3	Sotsial xizmatlar (nafaqalar)	34	11,01	11
4	Mehnat munosabatlari	40	12,94	10
5	Moliyaviy xizmatlar	50	16,18	7
6	Mulkchilik huquqi himoyalari	52	16,82	6
7	Soliq masalalari	53	17,15	5
8	Ko'chmas mulklar operatsiyasi	60	19,41	4
9	Oilaviy va meros huquqi	41	13,27	9
10	Savdo sohasi	30	9,71	14
11	Ta'lim xizmatlari	45	14,56	8
12	Transport xizmatlari	86	27,83	2
13	Maishiy xizmatlar	17	5,5	16
14	Aloqa xizmatlari	33	10,67	12
15	Turistik xizmatlar	32	10,35	13
16	Ijtimoiy iste'moli	28	9,06	15

• to'qqizinchi o'rin "oilaviy va meros huquqi" bilan bog'liq masalalar (41 nafar (13,27%));

• o'ninchi o'rin mehnat munosabatlari (40 nafar (12,94%));

• o'n birinchi o'rin sotsial xizmatlar (nafaqa) (34 nafar (11,01%));

• o'n ikkinchi o'rin aloqa xizmati (33 nafar (10,67%));

• o'n uchinchi o'rin turistik xizmatlar (32 nafar (10,35%));

• o'n to'rtinchi o'rin savdo sohasi (30 nafar (9,71%));

• o'n beshinchi o'rin ijtimoiy iste'moli (28 nafar (9,06%));

• o'n oltinchi o'rin maishiy xizmatlar (17 nafar (5,5%)) dan iborat bo'ldi.

Ma'lumki, huquqiy bilimlar va ulardan foydalanish shaxsning fuqarolik haq-huquqlari bilan ham bog'liqdir. Me'yoriy huquqiy hujjatlardan biri "O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi"da o'z aksini topgan. Shu jihatdan o'spirinlar o'zini fuqaro sifatida qanday huquqiy va xulq-atvor me'yorlarini bilishlariga o'z munosabatlarini bildirganlar. Har bir fuqaro fuqarolik burchi jihatdan Respublika konstitutsiyasini bilishi lozim bo'ladi.

Bu jihatdan o'spirinlarning 139 nafari (44,98%) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bosh qonuniy hujjat ekanligini bilishlarini e'tirof etganlar (3-jadval). Aslida tadqiqot

ishtirokchilarining barchasi O'zbekiston Respublika Konstitutsiyasini bosh qonuniy hujjat sifatida e'tirof etishlari muhim edi.

O'spirinlar fuqaro sifatida "Huquqiy munosabatlarni bilaman" tarzda 53 nafar (17,15%) respondent ijobiy mulohaza bildirganlar.

"Huquqqa rioya qiluvchi xulq-atvorni tushunaman" baholash mezonini bo'yicha o'spirinlarning 26 nafari (8,42%) ijobiy e'tirof bildirganlar. O'z navbatida o'spirinlarning 31 nafari (10,03%) esa "huquqbuzarlikning mohiyatini tushunaman" tarzda javob berganlar. Fuqaro sifatida yuqori ijobiy baho berilgan javoblardan biri "inson huquqlari haqida bilaman" javobida o'z aksini topgan (60 nafar (19,42%). Aslida birinchi band bo'yicha Respublika Konstitutsiyasini bilishining o'ziyoq qolgan barcha baholash mezonlarini o'zida aks ettiradi deyish mumkin.

O'spirinlar huquqiy savodxonliklari oshirishlari uchun o'z xatti-harakatlariga egadirlar. Ular huquqiy savodxonliklarini oshirib borishdagi urinishlarini quyidagi jabhalarda kuzatishimiz mumkin (4-jadval).

O'spirinlar o'zlarining huquqiy savodxonliklarini oshirishdagi asosiy harakatlarda 17,80 % respondent (55 nafar) tomonidan "doimiy ravishda huquqiy manbalar bilan shug'ullanaman" degan javobni berdilar. Tadqiqotimizda ishtirok etgan umumta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilari va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining ayrimlari kelajakda

3-jadval. O'spirinlar fuqaro sifatida huquqiy jihatlarini bilishlari quyi manbalari

Baholash mezonlari	O'spirinlar munosabat miqdori:	
	nafar	foiz
Men fuqaro sifatida quyidagilarni bilaman:		
O'zbekiston Respublika Konstitutsiyasini bilaman	139	44,98
Huquqiy munosabatlarni bilaman	53	17,15
Huquqqa rioya qiluvchi xulq-atvorni tushinaman	26	8,42
Huquqbuzarlikning mohiyatini tushinaman	31	10,03
Inson huquqlari haqida bilaman	60	19,42

4-jadval. O'spirinlarning huquqiy savodxonliklarini oshirishga yo'naltirilgan xatti-harakatlari

Baholash mezonlari	O'spirinlar munosabat miqdori:	
	nafar	foiz
Doimiy ravishda huquqiy manbalar bilan shug'ullanaman	55	17,80
Huquqiy holatlar bilan bog'liq vaziyatlarni kuzatib boraman	206	66,67
Bu holatga zarurat sezmayman	48	15,53

huquqshunos bo'lish istagida bo'lganlar ham bo'lishi mumkin. Shu sababli ham ular huquqiy manbalardan foydalanib borishlarini ifodaladilar. Shu bois huquqiy savodxonlikni oshirishda doimiy ravishda huquqiy manbalar bilan shug'ullanuvchilar shu toifa o'spirinlar bo'lishlari ham mumkin.

Ko'pchilik o'spirinlar esa huquqiy savodxonliklarini "huquqiy holatlar bilan bog'liq vaziyatlarni kuzatib boraman" tarzidagi javob bilan oshirib borishlarini bildirganlar (206 nafar (66,67%). Shu o'rinda aytib o'tish mumkinki, o'spirinlar yoki fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish borasida teleko'rsatuvlarni tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida ham huquqiy savodxonlik masalalarini tushuntirishda qonun hujjatlariga mos qisqa videoroliklarni ishlab chiqish muhimdir.

Ayrim o'spirinlar esa o'zlarining huquqiy savodxonliklarini oshirishga hech qanday ehtiyoj yo'q degan javobni berganlar. Bu borada 48 nafar yoki 15,53 % o'spirinlarda "bu holatga zarurat sezmayman" javoblari kuzatildi.

Xulosa.

Biz tadqiqot ishida o'spirinlarda huquqiy ong va huquqiy savodxonlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganib, olingan empirik va nazariy tahlillar asosida quyidagi xulosaga keldik:

1. O'spirinlarning huquqiy savodxonlikka bo'lgan ehtiyojlarining asosiy sababi kunda-

lik turmushda o'zlari va yaqinlari bilan bog'liq huquqiy buzilishlar sababli ekan.

2. Tibbiy xizmat, transport xizmati, turar joylarning kommunal xizmatlar, ko'chmas mulk operatsiyalari va mulkchilik huquqlari bilan bog'liq holatlardagi huquqiy buzilishlar o'spirinlar huquqiy savodxon bo'lishga zarurat tug'dirgan holatlar ekanligi aniqlandi.

3. O'spirinlarning munosabatiga ko'ra huquqiy savodxonlikka bo'lgan ehtiyojni shaxsning har doim huquqiy bilimlar olishga va boyitib borishiga zarurat hamda huquqiy masalalarga duch kelgandagina bilimlarga zarurat belgilangan.

4. O'spirinlarning huquqiy savodxonlikka munosabatlarida insonning kundalik turmushi va hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan huquqiy me'yoriy hujjatlarni bilish belgilovchi xarakterga ega ekan.

5. O'spirinlarning ko'pchilik qismi huquqning ayrim jihatlarini bilishlari, ba'zilar esa huquqning turli xil jihatlarini bilishlari orqali huquq bo'yicha biror bir ma'lumotga ega emasliklari kuzatildi.

6. O'spirinlarning huquqiy savodxonlikni ta'minlashda manbalardan foydalanuvchilar, huquqiy manbalarni tushunadiganlar, ammo foydalana olmaydigan va huquqiy manbalardan foydalanishni bilmaydiganlar toifasiga ajratildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Атагимова Э.И. Нравственно-правовое воспитание и просвещение в современной школе: проблемы и пути решения // Мониторинг правоприменения. - М.: Научный центр правовой информации при Минюсте РФ, 2016. № 3 (20). С. 70–76.
2. Джураев Б. Психологические особенности формирования юридической понятий у учащихся. // НАУ Национальная ассоциация ученых, VII Международная научно-практическая конференция: «Отечественная наука в эпоху изменений: постулаты прошлого и теории нового времени» часть 8, 2(7), Екатеринбург - 2015, 103-104 с.
3. Герцог Т.Ю. Правовая функциональная грамотность и правовая культура: вопросы определения, соотношения, структуры // Правовая политика и правовая жизнь. Саратов : Саратов. гос. юр. академия, 2011. № 2. С. 68–73.
4. Ипполитова Н.В., Тургина Е.В. Формирование правовой грамотности студентов как педагогический процесс // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Образование. Педагогические науки. Челябинск : Изд-во ЮрГУ, 2012. Вып. 16. № 14. С. 65–69.
5. Мануйлова Л.М., Максимов А.С. (2021) Формирование правовой грамотности подростков как педагогическая проблема // Наука о человеке: гуманитарные исследования. Том 15. № 3. С. 95–101.
6. Реан А.А. Семья, социальные установки и асоциальное поведение детей и подростков // Российский психологический журнал. 2015. Т. 12. № 1. С. 29-40.
7. Фарахутдинов Ш.Ф. Институциональные основы формирования экологической грамотности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата медицинских наук.-Тюмень,-2006.-28 с.
8. Якимов П.А. Формирование поликультурной грамотности старшеклассника в образовательном процессе: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.- Оренбург., 2007.-23 с.